

Shermamatova Dilnoza Alisherovna

O‘zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti 1-kurs magistranti Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universisteti tarix fakulteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Davriy matbuot o‘tmish tarixni aks ettiruvchi muhim manba sanaladi. Maqolada O‘zbekiston hududida elektrlashtirish jarayonining davriy matbuot sahifalarida yoritilish tarixiy jihatdan ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: gazeta, elektr, elektrlashtirish, O‘zbekiston.

PERIODICALS – A SOURCE FOR THE HISTORY OF ELECTRIFICATION

Abstract. Periodical press is an important source of past history. In the article, coverage of the process of electrification in the territory of Uzbekistan in periodical press pages is shown historically.

Keywords: newspaper, electricity, electrification, Uzbekistan.

ПЕРИОДИЧЕСКАЯ ПЕЧАТЬ – ИСТОЧНИК ПО ИСТОРИИ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ

Аннотация. Периодическая печать является важным источником истории прошлого. В статье показано историческое освещение процесса электрификации на территории Узбекистана на страницах периодической печати.

Ключевые слова: газета, электричество, электрификация, Узбекистан.

O‘lkamizning elektrlashtirish tarixi davriy matubot materiallarida muntazam ravishda yoritib kelingan bo‘lib, ulardan sanoat va fan-texnika jarayoniga doir ma‘lumotlar olishda foydalanish mumkin. Jumladan, Turkiston general-gubernatorligining rasmiy nashri – “Turkestanskiye vedomosti” gazetasi va uning ilovasi “Turkiston viloyatining gazetasi”da mavzuga oid qimmatli xabarlar bosilgan.

“Tarjumon” gazetasi sahifalarida ham Turkistonda elektrlashtirish tarixi yoritib borilgan. Jumladan, “Toshkanddan maktub” nomli maqolada hoji Halim Yunusovning shahar ma‘muriyatiga ko‘chalarni elektrlashtirish bo‘yicha loyiha bilan murojaat qilgani haqida xabar berilgan.

Gazetaning “O‘rta Osiyo” ruknida chop etilgan xabarlarda Toshkent shahar Dumasi shaharni elektrlashtirish rejasini ko‘rib chiqqanligi, 1913 yilgi sonlaridan birida chop etilgan maqolada “Andijon, eski Marg‘ilon, Xo‘qond, Namangan shaharlari orasida

telefon ishlamay boshladi. Andijon eski va yangi shaharlari elektrik ziyosi ila tanvir edilur”, deb ma’lum qilingan.

“Turkestanskiy kuryer”, “Na rubeje” gazetalarida Belgiyaning “Toshkent tramvayi” jamiyati tomonidan shaharni elektr chiroqlar bilan yoritishga oid takliflari, shuningdek, Pavlov va tramvay elektrostansiyalarining qurilishi, ekspluatatsiyasi bo’yicha muhim ma’lumotlar o’rin olgan.

Turkistonni elektrlashtirishga doir 1921 yilda chop etilgan maqolada o’lkada elektr va gidroelektr stansiyalarini qurish bo’yicha qimmatli tahliliy materiallar taqdim etilgan. Muallif suv energiyasi bo’yicha Rossiya dunyoda beshinchi o’rinni egallasa-da, undan foydalanishda oxirgi o’rinni, Turkiston esa Rossiya Federatsiyasida eng oxirgi qatorda – 5 % o’rniga, atigi 1 % imkoniyatidan foydalanayotganini qayd etib, elektrlashtirish vazifasini tashqi konsessiyalarsiz amalga oshirish qiyinligiga ham urg’u bergan.

Turkiston Kompartiyasi MQ va MIQ Kengashi nashri sanalgan “Izvestiya” gazetasining 1921 yilgi sonlarida, “Turkestanskaya pravda” gazetasi va “Elektrifikatsiya” jurnalida o’lkani elektrlashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar haqida ma’lumot beruvchi xabarlar ham talayginani tashkil etadi.

Shuningdek, “Turkiston” (“Qizil O’zbekiston”) gazetasida ham Ermat ismli muallifning elektr stansiya hamda Toshkentning Eski va yangi shahar ijroqo’mlarining qo’shma majlisida Bo’zsuv elektr stansiyasining qurilishi bilan bog’liq xabarlar chop etilgan.

“Tarjumon” gazetasining 1884 yilgi sonlaridan birida shaharning elektr ta’minoti bilan mahalliy aholi vakillari, jumladan hoji Halim Yunusov ham qiziqayotgani, elektr fonarlar kerosin bilan yonuvchi fonarlardan ancha arzon tushishi haqida xabar bergan: “Mo’tabar g’azetamizda hoji Halim Yunusovning hurmatli nomlari ko’rilmish edi. Bu ulamomiz umumiy sharqiyda kasb qildig’i quvvat biluk va funun jadidada uldug’i ma’lumoti ila shuhrat oldig’i kabi bu tarafja kashf va ijodlari doxi odina nom berilmishdir. Hoji Yusufning ijodlari maydona chiqmoqda esa o’z so’zlarin xorijinda o’lan sabablardandir. Ilm hikmat elektro taxti koshosi o’laroq elektrik fanarina bir qulaylik topilmishdirki, futujin va karusin fanarindan ujuz (arzon) yonajaqdur. Yaqinda hoji hazratlari Toshkent shahar idorasini birdeki arzholda Toshkentda elektrik fonarlari yoqiqni taklif etub, karusin fanarlarini bir lampada ulan fiati (narxi)dan yuzda igirma oshig’i fiati isitmishdir. 96 sanaya imtiyoz talab etadur”.

Kerosin yordamida yoritish bilan teng quvvatga ega bo’lgan elektr energiya uchun aholiga 3,5 marotaba qimmatroq haq to’lash taklif qilingan. Elektr energiyaga bunday narxlar Rossiyaning Yevropa qismidagi istalgan shahri uchun aql bovar qilmas narx bo’lib, Yevropa haqida gapirmasa ham bo’ladi. Bu masalaga “Turkestanskiye vedomosti” gazetasida bildirilgan munosabatda: “Bunday narxlar 10 yil oldin o’rinli bo’lib, hozirda elektr materiallari va uskunalarning narxi 2-3 marotaba arzonlashganligidan bu narxlar

eskidir”, deyiladi. Shuning uchun gazeta aholi va muassasalarni firma bilan savdolashishga va 16 sham quvvatli lampa uchun soatiga 1 kopeykdan ko‘p haq to‘lamaslikka chaqirgan.

“Turkestkanskaya pravda” gazetasining 1924 yilgi sonlaridan birida yozilishicha, Hindiqush GESidan 400 kVt energiya uzatish hisobiga Marv shahrini ham elektrlashtirish hamda sug‘orish maqsadlarida Dalvarzin cho‘lida 2000 kVt li stansiyani qurish, qish davrida yerni sug‘orishga ehtiyoj yo‘qligidan, mazkur stansiyada azotli o‘g‘it ishlab chiqarish nazarda tutilib, o‘g‘it masalasida o‘lka paxtachiligi boshdan kechirayotgan qiyinchiliklarni kamaytirishiga umid qilishgan.

REFERNECES

1. Киуайн. Электрофикация Туркестанского края // «Военная мысль». – Ташкент, 1921. Август–декабрь. – С. 202-212.

2. “Туркестанские ведомости” газетасининг 1899 йил 13 (25) июнь, 20 июнь, 10 (22); 1910 йил 19 август; 1911 йил 30 декабрь; 1912 йил 28 апрель, 14 октябрь; 1913 йил 24 март, 29 октябрь; 1914 йил 26 июнь, 20 июль, 19 декабрь; 1917 йил 22 октябрь, 29 октябрь сонлари; Электрик трамвой биносининг пойдевори курилиши бошланди // “Туркистон вилоятининг газети”. 1910 йил 22 август. №62; Бешёфча трамвой юргазиш учун кўчани кенгайтириш борасида // “Туркистон вилоятининг газети”. 1913 йил 3 февраль, №10; Мирмуҳсин. Трамвой ҳақида // “Туркистон вилоятининг газети”. 1914 йил 29 май, №42; Электро-техника муваффақияти // “Туркистон вилоятининг газети”. 1916 йил 7 февраль. №11.

3. Тошканддан мактуб // “Таржумон”. 1884 йил 30 март. №12.

4. Ўрта Осиё // “Таржумон”. 1905 йил 5 апрель. №26; Туркистонда телефон // “Таржумон”. 1913 йил 20 сентябрь. №207.

5. Саидбобоева Г.Н. Туркистон ўлкасини электрлаштириш тарихи (XIX аср охири–XX асрнинг биринчи чораги): Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 11.

6. Saidboboev Z.A., Musaev N.U., Saidboboeva G.N. History of constructing of electric stations and its activity in Turkestan region in 1909-1913 // Journal of Critical Reviews. 2020. 7 (3). Pp. 451-454.